

**Kredit (mikroqarz) shartnomasi rasmiylashtirilishidan oldin
qarzdorga/mijozga taqdim etiladigan
CHEKLIST**

Mikroqarz shartnomasi rasmiylashtirilishidan oldin, ushbu ro'yxatni diqqat bilan o'qib chiqing, har bir bandni tushunganingizni tasdiqlang. Bu sizni kelgusida kutilmagan moliyaviy qiyinchiliklardan saqlanishingiz uchun xizmat qilishi mumkin.

1.	Mikroqarz – bu xarajat. <i>Mikroqarz – bu men to'lashim shart bo'lgan moliyaviy majburiyatdir. Mikroqarzning asosiy qiymatidan tashqari, mikroqarz bo'yicha hisoblangan foizlarni, shuningdek mikroqarz bilan bog'liq boshqa xarajatlarni (sug'urta, mikroqarz to'lovlarini amalga oshirish xarajatlari va boshqalar) ham to'lashimga to'g'ri keladi.</i>	
2.	Mikroqarzni qaytarish jadvalini diqqat bilan o'rganib chiqdim. <i>Mikroqarzni qaytarish jadvalidagi barcha sanalar va to'lov miqdorlari hamda ushbu to'lovlarni amalga oshirish usullari bilan tanishdim. Mazkur jadvalga muvofiq har oyda qachon va qancha miqdorda to'lov to'lashim kerakligini tushundim hamda ularni o'z vaqtida bajara olaman.</i>	
3.	Daromadim mikroqarz to'lovlarini to'lash imkonini beradi. <i>Mazkur mikroqarzni olishda men oylik daromadim va doimiy xarajatlarimni (boshqa kreditlarim, ijara, kommunal xizmatlar, transport va boshqa xarajatlarni), shuningdek kredit bo'yicha o'z majburiyatlarimni bajara olmasligimga olib kelishi mumkin bo'lgan yengib bo'lmas kuch ta'siridagi vaziyatlar (holatlar)ni yuz berishi ehtimolini (ishimni yo'qotish, ish haqi va boshqa daromadlarni kechikishi, sog'ligimning yomonlashishi) inobatga oldim.</i>	
4.	Mikroqarz to'lovlarini kechiktirish oqibatlaridan xabardorman. <i>Mikroqarz to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirmasam, bank tomonidan ushbu qarzdorlik bo'yicha tegishli jarima va penyalari belgilanishini, shuningdek agar mikroqarz qarzdorligi sud orqali undirilsa, mazkur sud xarajatlarini ham to'lashimni tushundim. Bundan tashqari, kredit tariximda majburiyatlar o'z vaqtida bajarilmagani haqida ma'lumotlar aks ettirilishi, bu esa kelgusida moliyaviy tashkilotlardan kredit olish imkoniyatimni pasayishiga va/yoki noqulay shartlarda kredit olishimga sabab bo'lishi mumkinligini bilaman.</i>	

Imzo (qog'oz shaklda): tasdiqlayman _____.
(imzo)

Elektron shaklda (onlayn): "tasdiqlayman" tugmasi bosiladi.

Sana: _____.
(kun /oy /yil)

